

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Y.Q.Qayumova, X.M.Komilova	
Turkiston Qum balig'i Gobio lepidolaemus (K.Kessler1872)ning morfometrik xususiyatlarining qiyosiy tahliliga oid	103
U.I.Obidjanov	
Biologiya o'qitish metodikasidan laboratoriya ishlarini takomillashtirishning ayrim masalalari.....	108
E.X.Najmiddinov, M.A.Muxammadiyev	
Baliqlarning gelmintoz kasalliklariga qarshi antigelmint preparatlarni qo'lash usullari	112
M.M.Mirzaxalilov	
Shahrixonsoyda tarqalgan Kushakevich yalangbalig'ining (Iskandaria kuschakewitschi) ba'zi morfobiologik ko'rsatkichlari	115
N.B.Ikramov	
Shimoliy Farg'onan kanali algoflora taksonlarining mavsumiy dinamikasi	119

GEOGRAFIYA

M.H.Otamirzayeva	
Daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari	126
O.I.Abdug'aniev, D.B.Kosimov	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash usullari.....	133
M.R. Atabayeva	
O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursida "Ichki suvlari va suv boyliklari" mavzusini interfaol o'rganishda klaster usulidan foydalanishning ahamiyati	139
O.I.Abdug'aniev, T.D.Komilova	
Tabiat xilma-xilligi: nazariy asoslari, yondashuvlar va o'rganish usullari	144
P.R.Qurbanov	
O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishining asosiy bosqichlari	150

ILMIY AXBOROT

Q.B.Baratov	
Bo'lajak o'qituvchilarini uzliksiz ma'nnaviy tarbiya jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari.....	158
A.N.Qosimov	
O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik mazmuni	166
J.V.Solijonov	
Bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkur rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	172
A.Aloxunov	
Arxeologik tadqiqot usullari xususida	175
I.Aldashev	
O'quv jarayoniga media ta'limning integratsiyasi	182
I.R.Asqarov, G.A.Mo'minova	
Dalachoy tarkibidagi vitaminlar miqdorini aniqlash va ularning organizmga ta'siri	188
F.O.Toshboltayev	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida rivojlantirish modeli	194
A.N.Meliboyev	
Inson oliy qadriyat tamoyili asosida jamiyatda kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlarining kelgusidagi vazifalari	199
I.A.Suvanov	
Global o'zgarishlar jarayonida AQShning mafkuraviy taraqqiyot yo'li va uning o'ziga xosligi	205
G.R.Mamatdilieva	
Ingliz va o'zbek tillarida "foot/oyoq" kontseptining nominativ maydoni	211
M.O.Habibullaev	
Korruptsiyanı vujudga keltiruvchi ijtimoiy omillari va unga qarshi kurashning mexanizmlari.....	219
F.T.Raximova, S.S.Usmanova	
Minimal matnlarning kognitiv tahlili	222

O'ZBEKİSTONDA URBANİZATSIYA JARAYONLARI RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI

ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПРОЦЕССОВ УРБАНИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

MAIN STAGES OF THE DEVELOPMENT OF URBANIZATION PROCESSES IN UZBEKISTAN

Qurbanov Pahlavon Rustamovich¹

¹Qurbanov Pahlavon Rustamovich

– Qarshi davlat universiteti, geografiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishning asosiy bosqichlari tadqiq qilingan, urbanizatsiyaning iqtisodiy geografik jihatlariga bag'ishlangan. Urbanizatsiya va industrializatsiya o'tasidagi aloqadorlik tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются тенденции урбанизации в Узбекистане, экономико-географические особенности урбанизации. Связь между урбанизацией и индустриализацией была проанализирована.

Abstract

The article examines the trends of urbanization in Uzbekistan, economic and geographical features of urbanization. The relationship between urbanization and industrialization has been analyzed.

Kalit so'zlar: urbanizatsiya, industrializatsiya, shahar turmush tarzi, urbanizatsiyaning demografik jihatlari, aholini joylashuvi, resurs shaharlar.

Ключевые слова: урбанизация, индустриализация, городской образ жизни, демографические аспекты урбанизации, размещение населения, ресурсные города

Key words: urbanization, industrialization, urban lifestyle, demographic aspects of urbanization, population distribution, resource cities.

KIRISH

Hozirgi vaqtida jahonda ro'y berayotgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlар sharoitida, milliy va mintaqaviy iqtisodiyot rivojlanishining yuqori, barqaror sur'atlarini ta'minlash ko'p jihatdan ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, mintaqalarda zamonaviy infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish orqali qulay investitsiya muhitini shakllantirish bilan bevosita bog'liq. Bu strategik maqsadlarga erishish esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri hududiy tashkil etish, katta-kichik shaharlar va qishloq aholi punktlarining yagona tizim doirasida rivojlanishini uyg'unlashtirish hamda ilmiy asoslangan urbanizatsiya siyosatini olib borishni taqozo etadi.

Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining rivojlanishida, yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushini oshirish, shahar va tumanlarni kompleks rivojlantirishda urbanizatsiya jarayonining naqadar dolzarb ekanligini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham ko'rishimiz mumkin. "Bugungi kunda mamlakatimizning urbanizatsiya darajasi 35,5 foizni tashkil etadi va hozirdan boshlab zarur choralar ko'rilmasa, ushbu ko'rsatkich yaqin kelajakda pasayishi mumkin".

Davlat rahbari ushbu muammoning yechimi sifatida olis hududlarda joylashgan shahar va shahar posyolkalarni kompleks rivojlantirish, yalpi ichki mahsulot hajmida sanoat va xizmat ko'rsatish sohalari rolini yanada mustahkamlash, aholi farovonligini yuksaltirishda mavjud imkoniyatlardan unumli foydalangan holda urbanizatsiya darajasini oshirish bo'yicha puxta ishlab chiqilgan davlat dasturini amaliyatga joriy etish zarurligini qayd etib o'tdi.

Kuchli urbanizatsiya va sanoatlashuv siyosati respublikaning ko'pgina viloyatlarida aholi zichligining o'ta yuqoriligi va, ayni vaqtida, yer-suv zahiralarining tanqisligi, binobarin, mehnat resurslaridan to'liq va samarali foydalananish muammolarining mavjudligi bilan ham asoslanadi. Shu bois, yirik shahar va shahar aglomeratsiyalarining rivojlanishi, sanoat markazlarining funksional tarkibini zamonaviylashtirish va divercifikatsiya qilish, agroindustrial shaharchalar va qishloq

GEOGRAFIYA

urbanizatsiyasini joylarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan muvofiqlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAQSADI VA VAZIFALARI

O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining oxirgi ellik yildagi o'zgarishlar dinamikasini, urbanizatsiya va sanoatlashuv o'tasidagi aloqadorlikni hamda urbanizatsiya jarayoni rivojlanishidagi so'nggi yangiliklarini tahlil qilish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ta'kidlash joizki, shaharlar rivojlanishi va ular bilan bog'liq urbanizatsiya jarayoni iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida ancha ko'p o'rganilgan ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Jumladan, sobiq Ittifoq – hozirgi MDH mamlakatlarida ushbu muammo bilan N.N.Baranskiy, O.A.Konstantinov, I.M.Mayergoyz, G.M.Lappo, B.S.Xorev, Ye.N.Persik, Yu.L.Pivovarov, V.Sh.Djoashvili kabilar yaqindan shug'ullanishgan. O'zbekistonda esa ko'rيلayotgan muammoning geografik jihatlari Z.M.Akramov, E.A.Ahmedov, I.V.Smirnov, T.I.Raimov, O.B.At-Mirzayev, A.S.Soliyev, A.A.Qayumov va boshqalar tomonidan batafsil o'rganilgan. Shuningdek, alohida mintaqalar doirasida T.N.Mallaboyev, Sh.B.Imomov, Z.T.Raimjonov, Z.T.Abdalova, S.S.Zokirov, M.N.Erdonov, M.M.Egamberdiyevlar tadqiqotlar olib borishgan. Urbanizatsiyaning ayrim tabiiy geografik va boshqa masalalari G'.Pardayev, A.Soatov, Yu.Ahmadaliyev, S.Tashtayeva hamda A.Mavlonov ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rib chiqilgan.

Maqolada tarixiylik, tizim-tarkib, statistik, geografik taqqoslash kabi metodlardan hamda mazkur sohaga tegishli bo'lgan qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, hukumat qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, "Shaharsozlik kodeksi", shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida, xususan, shaharlar geografiyasi va urbanizatsiya jarayonlarini o'rganishda yaratilgan nazariy bilimlar, mazkur muammolar bilan shug'ullangan olimlarning ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Urbanizatsiya so'zining lug'aviy ma'nosi "urban" – shahar, "zatsiya" – jarayon, ya'ni mamlakatning shaharlashuv jarayoni demakdir. Keng ma'noda urbanizatsiya, ya'ni mamlakat va mintaqalarda, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida shaharlashuv jarayonining kuchayib borishi, turli yiriklikdagi shaharlar va, xususan yirik shahar va shahar aglomeratsiyalarining rivojlanishi, qishloq joylar aholisi turmush tarzi o'zgarishida o'z aksini topuvchi hodisadir. U, eng avvalo, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hisoblanadi. Chunki, urbanizatsiya nafaqat shaharlar rivojlanishiga, balki ularning ta'sirini o'z atroflariga tarqalib borishiga ham ta'sir qiladi. Urbanizatsiyaning bunday xususiyati yoki mohiyati uning moddiy negizini tashkil etuvchi shaharlarning **ochiq tizim** sifatida faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq. Shu ma'noda shaharlar hududning markazi va bu joyda markazga intiluvchi va markazdan qochuvchi (tarqaluvchi) kuchlarning borligi, ularning o'zaro nisbati va muvozanati urbanizatsiyaning asosiy geografik jihatlarini belgilab beradi.

Jahon urbanizatsiyasining asosiy xususiyatlari turli mamlakatlarda turli namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonning rivojlanishi, jumladan, O'zbekistonda ham o'ziga xos xususiyatga ega. Respublikamiz qadimgi madaniyat va shaharsozlik markazlaridan hisoblansada, bu yerda shaharlar to'ri va tizimi, hozirgi zamon mazmunidagi urbanizatsiya jarayonlari Sobiq Ittifoq davrida shakllangan. Ushbu jarayonning demografik ko'rsatkichi, xususan, shahar va shaharchalar soni oxirgi ellik yil davomida ikki marta keskin o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Masalan, 1970 yilda Butunittifoq aholi xatlovi ma'lumotlariga ko'ra, respublikada 42 ta shahar, 82 ta shaharcha mavjud bo'lib, ularda jami aholining 36.6 foizi yashagan. 1972 yilda aholi punktlariga shahar maqomini berish me'yorini 10 mingdan 7 mingga tushirilishi munosabati bilan, ularning soni keskin ko'payib bordi. Bu holatni respublikada urbanizatsiya rivojlanishining **birinchi to'lgini** deb hisoblash mumkin. Ta'kidlash joizki, shahar joylar sonining tez ko'payishi, ayniqsa 1975-1979 yillarda ko'zga tashlanadi. 1979 yilga kelib O'zbekistonda 90 ta shahar va 94 ta shaharchalar mavjud bo'lgan, ularga jami aholining 41.2 foizi to'g'ri kelgan [1].

1979 yil aholi ro'yxatiga binoan respublika shaharlari ikki martadan ziyodroqqa ko'payishi, xususan, Andijon, Surxondaryo, Samarqand, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida keskin ko'zga tashlanadi. Masalan, Qashqadaryoda ularning soni 1970-1979 yillar oraliq'ida besh marta ortgan, Andijon va Surxondaryo viloyatlarida to'rt, Toshkent viloyatida uch yarim barobarga ko'paygan.

Ayni vaqtida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo va Xorazm viloyatlari shaharlar to'ri oz miqdorda ortgan bo'lsa, Farg'onada esa ularning soni bittaga qisqargan.

E'tiborlisi shundaki, ko'rilibotgan davrda urbanizatsiyaning birinchi to'lqini asosan shaharlar hisobidan yuz bergen, shaharchalarning soni atigi 12 taga ko'paygan, xolos. Natijada, shahar va shaharchalar (shahar tipidagi posyolkalar) ning o'zaro nisbati 1970 yilda 1:1.95 ga teng bo'lgan holda, 1979 yilda 1:1.04 ni tashkil etgan. Demak aytish mumkinki, bu davr **ekstensiv** urbanizatsiya davri bo'lib, shaharlar to'ri va tarkibi yanada maydalashgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, to'r – bu shahar joylarning oddiy qatori, miqdoriy ko'rsatkich hisoblanadi. ularning tarkibi esa ko'proq iqtisodiy mazmunga ega bo'lib, shaharlarning iyerarxik tuzilishi yoki tizimini aks ettiradi. Binobarin, mamlakat va uning mintaqalarida shahar joylar, ularning "piramidasini" mukammalligi ayni vaqtida bu yerda ishlab chiqarishni to'g'ri hududiy tashkil etilganligidan ham guvohlik beradi. Urbanizatsiya jarayonining jadal rivojlanish holati taxminan 1985 yillargacha davom etgan. Bu davrda umumiy urbanizatsiya darajasi 42.0 foizgacha ko'tarilgan, undan keyingi yillarda esa shaharlar sonining ko'payish sur'ati ancha susaygan va asta-sekin barqarorlashgan. Masalan, O'zbekistonda shahar aholi manzilgohlari soni 1989-2008 yillar, ya'ni 20 yil mobaynida atigi 5.4 foizga ko'paygan, xolos. Mazkur ko'payish shaharchalar hisobiga ro'y bergen bo'lib, shaharlar sonida, aksincha, kamayish kuzatilgan. Qizig'i shundaki, bu davrda urbanizatsiyaning umumiy ko'rsatkichi ko'tarilish o'rniqa, pasayib borgan. Bunday urbanizatsion jarayon, odatda, zamonaviy dunyo mamlakatlarida juda kam uchraydigan holatdir.

1979-1989 yillar oraliq'ida respublikada shaharlar soni 90 tadan 124 taga, shahar tipidagi posyolkalar 94 tadan 97 taga yetgan. Shaharlar to'ridagi ko'payish asosan Buxoro va Xorazm viloyatlari hisobiga yuz bergen. Ushbu mintaqalarda shaharlarning soni ikki-uch martaga ortgan. Faqat Surxondaryo viloyatida ularning soni o'zgarmay qolgan, boshqa hududlarda ozmi-ko'pmi ko'payish qayd etilgan.

Mustaqillik yillarda ham shahar va shaharchalar sonining o'sishi, urbanizatsiya ko'rsatkichining o'zgarib borishi mamlakatning turli mintaqalarida turlicha kechgan. O'tgan asrning 90-yillaridagi respublika iqtisodiyotini bozor munosabatlariiga o'tish davrining qiyinchiliklari va mamlakat ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida muxim omil bo'lgan urbanizatsiya jarayonlariga davlat tomonidan yetarlicha e'tibor qaratilmaganligi natijasida shahar va shahar posyolkalari rivojlanishida ko'plab muammolar vujudga kelgan.

Jumladan, Sobiq Ittifoq davrida respublika iqtisodiyotida yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan sanoat shaharları Angren, Olmaliq, Chirchiq, Qo'qon, Marg'ilon, Shaxrisabz, Kattaqo'rg'on, Bekabod, Gazli singari o'nlab yirik va o'rta shaharlar rivojlanishi susaygan, tashqi migratsiya jarayoni kuchayib borgan. Natijada, ba'zi shaharlar aholisi nihoyatda sekin o'sgan, ularning ayrimlarida esa demografik salohiyatning qisqarib borishi kuzatilgan. Shuningdek, ulardagi yirik sanoat ob'ektlarining o'z faoliyatini qisman yoki to'liq to'xtatishi, kommunikatsiya infratuzilma tarmoqlarining yaroqsiz ahvolga kelib qolishi, shaharlardagi ekologik, nozogeografik va krimiogen vaziyatning keskinlashuvi kuchayib bordi.

1989-2008 yillar mobaynida O'zbekiston shaharları soni 4 taga kamaygan, shaharchalar esa 16 taga ko'paygan. Qisqarish ko'proq yuqorida ta'kidlangan Buxoro va Xorazm viloyatlarida bo'lgan. Xorazmda beshta shaharlar shaharcha maqomiga tushirilgan. Shu asosda ham shahar tipidagi posyolkalarning soni ortgan. Biroq, Buxoro, Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent viloyatlarida ularning soni qisqargan. 2008 yil yanvar ma'lumotlariga ko'ra, shahar joylarning eng ko'p soni Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro va Andijon viloyatlariga to'g'ri kelgan va urbanizatsiyaning geografik ko'rsatkichi, ya'ni shahar joylar zichligi mamlakat hududlarida o'ziga xos xususiyat kasb etgan. Agar respublika bo'yicha 2000 kv. km. ga o'rtacha 1 ta shahar aholi manzilgohi to'g'ri kelgan bo'lsa, Toshkent, Andijon, Sirdaryo, Namangan va Farg'ona viloyatlarida bu ko'rsatkich ancha yuqori bo'lgan. Shu bilan birga maydonining yirikligi sababli Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro viloyatlarining shahar joylar bilan ta'minlanganlik darajasi ancha past. Bu holat mintaqalarning tabiiy sharoiti va ishlab chiqarish kuchlarining joylanishi, ixtisoslashuvi va mujassamlashuvi bilan izohlanadi.

GEOGRAFIYA

1-jadval.

O'zbekiston viloyatlarida shahar aholisi soni va urbanizatsiya darajasi (1970-2008 yy.).

№	Hududlar	1970		1979		1989		2008	
		Shahar aholisi soni, ming kishi	Urbanizatsiya darajasi, foizda	Shahar aholisi soni, ming kishi	Urbanizatsiya darajasi, foizda	Shahar aholisi soni, ming kishi	Urbanizatsiya darajasi, foizda	Shahar aholisi soni, ming kishi	Urbanizatsiya darajasi, foizda
O'zbekiston Respublikasi	4322.0	36.6	6348.0	41.2	8040.9	40.6	9698.2	35.8	
1 Qoraqalpog'iston Respublikasi	249.0	35.5	382.0	42.2	580.7	47.9	774.5	48.5	
viloyatlar:									
2 Andijon	255.0	24.1	387.0	28.6	555.4	32.2	716.9	29.2	
3 Buxoro	292.0	31.3	469.0	37.1	620.8	38.2	456.8	29.1	
4 Jizzax	39.0	11.4	140.0	27.4	217.8	29.7	321.2	29.7	
5 Navoiy	-	-	-	-	-	-	327.8	39.5	
6 Namangan	243.0	28.7	378.0	34.4	547.0	37.2	806.3	37.1	
7 Samarqand	387.0	28.4	723.0	40.5	693.1	30.4	755.0	25.1	
8 Sirdaryo	102.0	29.7	141.0	31.4	184.0	32.5	215.8	31.1	
9 Surxondaryo	106.0	16.0	172.0	19.2	241.7	19.3	381.3	19.1	
10 Toshkent	586.0	39.8	773.0	43.1	953.7	44.5	990.8	39.3	
11 Farg'ona	440.0	33.0	565.0	33.4	694.1	32.4	827.2	27.8	
12 Xorazm	103.0	18.6	150.0	20.2	279.0	27.6	328.1	21.8	
13 Qashqadaryo	132.0	16.5	283.0	25.2	413.4	25.9	616.5	24.6	
14 Toshkent shahri	1388.0	100.0	1785.0	100.0	2060.2	100.0	2180.0	100.0	

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Urbanizatsiyaning demografik ko'rsatkichi ham ko'rileyotgan davrda turli darajadagi tarixiy-geografik xususiyatlarga ega. 1-jadvalda respublika mintaqalari doirasida shahar aholisining soni va uning jami aholidagi salmog'i keltirilgan. Jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, shaharliklar soni va ularning jami aholidagi ulushi, dastlabki davrda ko'payib borgan. Keyinchalik esa bu ko'rsatkich biroz zaiflashgan. Masalan, 1970 yilda umumiy urbanizatsiya darajasi respublika bo'yicha 36.6 foizni tashkil etgani holda, u 1979 yilda 41.2 foizga teng bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichning o'zgarishi, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro va Namangan viloyatlarida sezilarli darajada bo'lgan, Farg'ona, Xorazm, Sirdaryo hamda Surxondaryo viloyatlarida esa u kam o'zgargan yoki deyarli o'zgarmagan. Bu davrda shahar aholisining soni respublika bo'yicha 146.8 foizga o'sgan.

Mustaqillik yillarda ham shahar aholisining o'sish ko'rsatkichlarida oldingi yillardagidek Qashqadaryo, Jizzax, Surxondaryo va Namangan viloyatlari yetakchilik mavqeini saqlab qolgan. Ushbu mintaqalarda shahar aholisining tabiiy ko'payishi qishloq joylar bilan deyarli teng, tashqi migratsiya jarayonlari esa o'ta sust bo'lgan. 90-yillarda rusiyabzon va boshqa nomahalliy aholining ko'chib ketishi natijasida mazkur millat vakillari ko'p yashaydigan Toshkent, Samarqand va Buxoro viloyatlarida shahar aholisining o'sish ko'rsatkichlari keskin pasaygan [2]. Yangi asrda esa Toshkent viloyatining yirik sanoat markazlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidan ko'plab aholining ko'chib kelishi ushbu viloyatning shahar aholisi o'sishini ancha tezlashtirdi. Ammo Sirdaryo, Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlarida shahar aholisi sust ko'paymoqda.

2009 yilni respublikamizda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" deb e'lon qilinishi va bu borada maxsus davlat dasturining ishlab chiqarilishi munosabati bilan 966 ta qishloq joylarga

shaharcha maqomi berildi. Natijada, shaharchalar soni va urbanizatsiya darajasi keskin ko'tarilib 35.8 foizdan 51.7 foizga yetdi [3, b.22]. Bu holatni respublikada urbanizatsiya jarayonining **ikkinchi to'lqini** sifatida talqin qilish mumkin. Bunday "sakrash" yoki "inqilobiy o'zgarish" ayniqsa Namangan, Farg'ona, Andijon, Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarqand viloyatlari urbanizatsiya darajasida keskin ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida urbanizatsiya darajasida katta o'zgarishlar ro'y bermadi.

Urbanizatsiyaning murakkab va, eng avvalo, uning ijtimoiy-iqtisodiy mazmun mohiyati to'liq e'tiborga olinmaganligi bois, haqiqiy urbanizatsiya darajasini oshirishda qator o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjudligi ayon bo'ldi. Mazkur muammolar ko'p qirrali bo'lib, mamlakatimizda shaharsozlikni amalga oshirishda joylarning iqlim va tabiiy geografik sharoitlari, demografik vaziyatini to'laroq hisobga olish, sanoat siyosatini amalga oshirish hamda aholi bandligi va uning yashash darajasini yaxshilash, mavjud yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, qolaversa, mintaqalar real ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini haqiqiy urbanizatsiya darajasiga moslashtirilmaganligi natijasida ham ushbu siyosat amalda kutilgan natijani bermadi.

Ma'lumki, hozirgi vaqtida mamlakatimizda, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu muammoning yechimi esa ko'p jihatdan shaharlarning funksional tiplariga bog'liq. Masalan, yirik sanoat markazlarida, jumladan, Chirchiq, Angren, Olmaliq, Bekobod va boshqalarda ularning iqtisodiyotini rivojlanterish yangi texnologiyalarni jalb qilish, sanoat tarmoqlari tarkibini boyitishni talab qiladi [4]. Ayniqsa bu muammo shahar xo'jaligi tor ixtisoslashgan, ya'ni "monoshahar"larda keskin. Marg'ilon asosan to'qimachilikka, Angren ko'mir sanoatiga ixtisoslashuvi hozirgi vaqtida ma'lum bir qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Qo'qon shahrining so'nggi yillarda sust rivojlanishi ham bu yerda joylashgan respublikadagi eng yirik paypoq to'qish fabrikasining depressiv holati bilan bog'liq. Respublikaning qolgan kichik va o'rta shaharlari ko'proq agrosanoat majmuasiga ixtisoslashgan bo'lib, ularning taraqqiyoti zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, kichik biznes sohasining rivoji bilan bog'liq.

Demak, urbanizatsiya jarayonining rivojlanishini umuman shahar joylarning mavjudligi bilan emas, balki ularning funksional tiplari bilan baholash to'g'riroq bo'ladi. Respublikamiz olimlari: E.Ahmedov, T.Raimov, O.Ata-Mirzayev, A.Soliyev, A.Qayumov va boshqalar shaharlarni funksional tiplarga ajratish masalasi bilan shug'ullanishgan. ularning ilmiy ishlarini hisobga olgan holda, shaharlarning quyidagi funksional tiplarini ajratish mumkin:

- poytaxt shahar (Toshkent);
- ko'p funksiyali katta shaharlar – Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar ma'muriy markazlari (Nukus, Samarqand, Andijon va boshq.);
- yirik sanoat markazlari (Chirchiq, Angren, Olmaliq, Marg'ilon, Qo'qon va x.k.);
- o'rta darajadagi sanoat markazlari (Bekobod, Yangiyo'l, Zarafshon, Kattaqo'rg'on, Shaxrisabz va boshq.);
- transport va sanoatga ixtisoslashgan shaharlar (Kogon, Qo'ng'irot, Xovos, Uchquduq kabilar);
- resurs shaharlar (Gazli, Muborak, Sharg'un, Tolimarjon, G'ozg'on, Marjonbuloq va x.k.);
- qishloq tumanlarining ma'muriy markazlari, agrosanoat majmualari shakllangan shaharlar (Quva, Shaxrixon, Chust, Yakkabog', Shumanay va boshqalar, ularning soni respublikada eng ko'pchilikni tashkil qiladi.);
- rekreatsiya va turizm markazlari (Chortoq, Chimyon, Xiva, Qashqadaryo, Miroqi va boshq.).

Shaharlar funksional tiplarining rivojlanishi urbanizatsiya jarayonining muhim iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biridir. Bu xususda, ayniqsa, shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning ahamiyati katta. Umumiylar tarzda esa bu holat viloyat va respublika yalpi ichki mahsulotlarida (YAIM) qishloq xo'jaligi bo'Imagan tarmoqlar xissasining oshib borishida o'z aksini topadi. Masalan, respublikamizda 2021 yil yakunlariga ko'ra YAIM tarkibida sanoat va qurilish 33.5 foizni, xizmatlar sohasi 47.3 foizni tashkil qilgan. Vaholanki, bu ko'rsatkichlar 2000 yilda yuqoridagilarga mos holda 23.1 va 42.5 foizga teng bo'lgan. Urbanizatsiyalashuvning eng muhim ko'rsatkichlari bo'lmish sanoat, qurilish va xizmatlar sohasining tez o'sib borishi yangi shaharchalarning shakllanishida muhim omil sanaladi. O'zbekiston mintaqalarida urbanizatsiyani atroflicha baholash uchun ushbu jarayonning turli ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish talab etiladi. Jumladan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya nuqtayi

GEOGRAFIYA

nazardan olganda mintaqalarda sanoat va qurilish, umuman qishloq xo'jaligidan boshqa tarmoqlarda band bo'lganlar ulushi bilan shahar aholisining nisbiy ko'rsatkichi o'tasidagi aloqadorlikni aniqlash ma'lum ahamiyatga ega. Bu borada bilvosita xulosani agroiqtisodiyot tizimida ishlaydiganlar hissasidan ham olish mumkin.

Respublika mintaqalari doirasida urbanizatsiyaning demografik ko'rsatkichi bilan iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy (aholi bandligi, yalpi hududiy mahsulot – YAHM tarkibi) ko'rsatkichlar o'tasidagi bog'liqlik mavjud. Biroq, bu xususda aholi bandligining tarkibiy tuzilishi aniqroq ma'lumotlar beradi. 2-jadval ma'lumotlaridan Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faol aholining 48.0 foizi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 52.0 % qishloq xo'jaligi bo'limgan sohalarda (sanoat va qurilishda 15.0 %, xizmatlar sohasida 37.0 %) band, umumiylashtirilgan urbanizatsiya ko'rsatkichi esa 42.9 %. Jizzax viloyatida birlamchi sektorda 41.8, sanoat va qurilishda 15.1 va xizmatlar sohasida 43.1 foiz iqtisodiy faol aholi ishlaydi, urbanizatsiya darajasi 47.0 %. Taxminan shunday vaziyatni Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida ham kuzatish mumkin.

Aslini olganda, **klassik urbanizatsiya hududning sanoatlashganligi** bilan tavsiflanadi. Bu jihatdan qaraganda YAHM tarkibi bilan urbanizatsiya o'tasida qandaydir qonuniy aloqadorlikni ilg'ash mumkin. Jumladan, sanoat va qurilish hissasi Navoiy, Toshkent, Buxoro, Farg'ona va Qashqadaryo kabi viloyatlarda yuqori. Aks holatni Jizzax, Sirdaryo, Surxondaryo viloyatlarida ko'rish mumkin. Ammo, bu qonuniyat barcha hududlarda o'z isbotini topmaydi. Masalan, Namangan viloyatinning hozirgi urbanizatsiya darajasi respublikada eng yuqori – 64.6 foiz, uning iqtisodiyoti esa tipik agroindustrial harakterga ega (2-jadval).

2-jadval

**O'zbekiston viloyatlarida YAHM tarkibi, aholi bandligi va urbanizatsiya darajasi
(2021 yil yakuni bo'yicha, foizda)**

T/ r	Hududlar	YAHM tarkibi				Aholi bandligi				Umumiylashtirilgan urbanizatsiya darajasi
		I sektor	II sektor	III sektor	II - III sektor	I sektor	II sektor	III sektor	II - III sektor	
	O'zbekiston Respublikasi (YalM)	19.2	33.5	47.3	80.8	25.7	19.1	55.2	74.3	50.6
	shu jumladan:									
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	28.8	35.2	36.0	71.2	25.7	19.1	55.2	74.3	49.2
	viloyatlar:									
2	Andijon	43.3	26.5	30.2	56.7	25.2	22.5	52.3	74.8	52.3
3	Buxoro	45.0	25.3	29.7	55.0	29.8	26.0	44.2	70.2	37.4
4	Jizzax	53.4	18.5	28.1	46.6	41.8	15.8	42.4	58.2	47.0
5	Navoiy	15.0	72.7	12.3	85.0	20.6	35.1	44.3	79.4	48.8
6	Namangan	40.9	22.4	36.7	59.1	26.4	20.9	52.7	73.6	64.6
7	Samarqand	44.9	20.8	34.3	55.1	26.1	20.7	53.2	73.9	37.4
8	Sirdaryo	39.6	32.4	28.0	60.4	39.7	20.3	40.0	60.3	42.9
9	Surxondaryo	47.9	16.1	36.0	52.1	35.3	15.5	49.2	64.7	35.5
10	Toshkent	22.3	53.9	23.8	77.7	22.9	32.7	44.4	77.1	49.4
11	Farg'ona	35.2	28.0	36.8	64.8	25.4	25.2	49.4	74.6	56.6
12	Xorazm	45.7	20.5	33.8	54.3	33.0	20.8	46.2	67.0	33.3
13	Qashqadaryo	41.4	24.2	34.4	58.6	26.1	21.4	52.5	73.9	43.1
14	Toshkent shahri	-	44.5	55.5	100.0	0.5	32.3	67.2	99.5	100.0

Izoh: I sektor – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, II sektor – sanoat va qurilish, III sektor – xizmatlar sohasi.

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining stat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

Demak, urbanizatsiya jarayoning respublika va uning mintaqalarida rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi hamda ular joyning demografik vaziyati, iqtisodiyotining tarmoqlar tarkibi va ixtisoslashuvi kabi omillar bilan bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining aholi bandlik tarkibi va urbanizatsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlash uchun qo'llanilgan Spirmen koeffitsiyenti urbanizatsiya darajasi va I sektorda (qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi) band bo'lganlar o'rtasidagi bog'liqlik minus 0.69 punktni tashkil etishini ko'rsatdi. Bundan mazkur ko'rsatkichlar o'rtasida teskari bog'lanish borligini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mazkur ko'rsatkich manfiy (minus) bo'lsa to'g'ridan-to'g'ri aloqadorlikning yo'qligini, musbat (plus) bo'lganda bunday bog'liqlik mavjudligini anglatadi. Ushbu koeffitsient minimal -1.00, maksimal +1.00 bo'lishi mumkin.

Haqiqiy urbanizatsiyalashuv darajasini belgilab beruvchi II (sanoat va qurilish) va III (transport, xizmatlar va b.) sektorda band aholi bilan aloqadorlik koeffitsiyenti 0.69 punktni ko'rsatmoqda (mos ravishda 0.40; 0.31). Bundan ko'rindiki, respublika shaharlari bilan mazkur tarmoqlarda band bo'lgan aholi o'rtasida aloqadorlik mavjud. Ammo u o'ta sezilarli darajada emas. Vaholanki, shahar manzilgohlariga berilgan ta'rifa "Shaharlar – qishloq xo'jaligi bo'lmagan sohalarda band bo'lgan aholi manzilgohlari", deb keltirilgan. Demak, hozirgi zamon urbanizatsiya kengroq mazmun kasb etmoqda [5].

2009 yildan keyingi yillarda respublika aholisining urbanizatsiya darajasi faqat Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlarida oshgan bo'lib, haqiqatda esa yangi tashkil etilgan shaharchalarda shahar tashkil etuvchi tarmoqlar – sanoat va xizmat ko'rsatish sohalari hamda ularda band aholi sonida deyarli o'zgarishlar kuzatilmadi. Ya'ni statistik ma'lumotlarda mamlakat aholisining yarmidan ko'pi shahar joylarda istiqomat qilsada, amalda bu ijobiy holat mamlakat aholsi turmush tarzida aks etmadidi.

So'nggi yillarda Prezident Sh.M.Mirziyoevning bevosita rahbarligi va tashabbuslari natijasida respublika siyosi, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda katta islohatlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohatlar natijasi urbanizatsiya jarayoni, uning tarkibiy qismi bo'lgan shahar va shahar aglomeratsiyalarida ham o'z aksini topmoqda. Jumladan, o'zining katta turistik resurslariga ega sayyoqlik markazlari bo'lgan Shaxrisabz va Xiva shahalarini tumanga bo'ysunuvchi shaharlar toifasidan viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar toifasiga o'tkazilishi, Toshkent viloyati markazini Nurafshon (sobiq To'yepa) shahriga ko'chirilishi va bu joyda mutlaqo yangi smart shahar buniyod etilayotganligi, Toshkent siti, Namangan siti, Samarqand siti singari yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy shaharlar qurilayotganligini ta'kidlash lozim.

Prezident Sh.M.Mirziyoevning 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida O'zbekiston hukumatiga mamlakat aholisining urbanizatsiya darajasini 2030 yilga qadar 60 foizga yetkazish bo'yicha Davlat dasturi ishlab chiqish, bunda faqat poytaxt va viloyat markazlari bo'lgan shaharlarni emas, avvalo, hududlarda joylashgan shahar va posyolkalarni kompleks rivojlantirish e'tibor qaratish, shahar va posyolkalarda ko'p qavatlari uylar qurishga, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi ham uy-joylarni qurish dasturlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlantirish, belgilangan vazifalarni amalga oshirishda Iqtisodiyot vazirligi asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi lozimligini ta'kidlagan edi.

Mazkur murojaatnomada belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida 2019 yil 10 yanvarda qabul qilingan "Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 5621-sonli Prezident Farmoni bilan Iqtisodiyot vazirligi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi qayta etib tashkil etildi hamda davlat tomonidan urbanizatsiya jarayonlarini tartibga soluvchi organ sifatida belgilab qo'yildi [6].

Shuningdek, 2018 yil 10 yanvarda "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 5623-sonli Prezident Farmonini qabul qilindi [7]. Mazkur Farmon bilan mutlaqo yangi uy-joy siyosatini amalga oshirish asosida urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish, aholining qishloq joylaridan shaharlarga erkin harakatlanish uchun shart-sharoitlar yaratish, yirik shaharlardagi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari asosida texnoparklar tashkil qilish, o'rta shaharlarni, shu jumladan, tuman markazlarini boshqarishda ilg'or xalqaro tajribani keng joriy etish, yirik shaharlarga tutash bo'lgan va qulay transport aloqasiga ega yo'ldosh-

GEOGRAFIYA

shaharlar tarmog'ini kengaytirish, yer uchastkalarini xususiylashtirish, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda, shuningdek, mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalgan holda 2019 yil 1 iyulga qadar belgilangan tartibda, shu jumladan, kompleks uy-joylar qurilishi hisobidan yangi shaharlar va yo'l dosh-shaharlar tashkil etishni nazarda tutadigan O'zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha urbanizatsiyani rivojlantirish Konsepsiyasini ishlab chiqish, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzurida Urbanizatsiya agentligini va Urbanizatsiyani rivojlantirish jamg'armasi tashkil etish kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

XULOSA

Mazkur Prezident farmonlari respublikada urbanizatsiya rivojlanishining inqilobiy **uchinchini to'lqinini**, ya'ni miqdor ko'satkichlaridan sifat ko'satkichlariga o'tish bosqichini, **intensiv bosqichni** boshlab beradi. Maqsadga erishish uchun, avvalgi xatolardan to'g'ri xulosa chiqargan holda, hududlarning real ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatidan kelib chiqib, puxta ilmiy asoslangan urbanistik siyosat olib borish lozim. Bunda mamlakatimiz iqtisodchi, iqtisodiy geograf, urbonolog va demograf olimlar tomonidan muhim ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi, ularning natijalarini amaliyatga joriy etib borish mexanizmini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu borada ushbu jarayonni harakatga keltiruvchi, uning negizi yoki moddiy asosi hisoblangan shaharlarni o'rganish iqtisodiy geografik tadqiqotlarning eng muhim ob'ektlaridan biri sanaladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ата-Мирзаев О. Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность. – Т.: Ижтимоий фикр, 2009. – 223 с. (Ata-Mirzaev O. B. Narodonaselenie Uzbekistana: history and modernity. - T.: Ижтимоий фикр, 2009. - 223 p.)
2. Ахмедов Э.А. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. –Т.: Абу Али Ибн Сино, 2002. – 224 б. (Ahmedov E.A. Cities of Uzbekistan in the years of independence. - T.: Abu Ali Ibn Sina, 2002. - 224 p.)
3. Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон қишлоқлари (Қишлоқ жойлар географияси). Т.: "Fan va texnologiya", 2009. – 212 б. (Soliev A., Nazarov M. Villages of Uzbekistan (Geography of rural areas). T.: " Fan va texnologiya ", 2009. - 212 p.)
4. Эгамбердиева М.М. Бозор иқтисодиёти шароитида шаҳарлар ривожланишининг минтақавий муаммолари (Тошкент вилояти мисолида). Геогр. фан. номзоди илмий дараҷаси олиш учун ёзилган диссертация.– Т., 2008. –163 б. (Egamberdieva M.M. Regional problems of urban development in the conditions of market economy (Tashkent region as an example). Geogr. science. Dissertation written for a candidate's degree. - T., 2008. -163 p.)
5. Курбанов П.Р. Жанубий Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари. Монография. -Т.: «MUMTOZ SO'Z». 2019 йил. – 180 б. (Kurbanov P.R. Urbanization processes in South Uzbekistan. Monograph. -T.: " MUMTOZ SO'Z ". 2019 year. - 180 p.)
6. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. <http://lex.uz/pdfs/4154478> (National database of legislation of the Republic of Uzbekistan. <http://lex.uz/pdfs/4154478>)